



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda differensial yondashuv asosida til o'qitish metodikasi o'quvchilarining individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta'lif jarayonini tashkil etishga imkon beradi. Bu yondashuv, ayniqsa, nofilologik yo'naliishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun til o'rganishni samarali va maqsadli qiladi. Turli strategiyalar va metodlarning qo'llanilishi ta'lif jarayonini boyitadi va o'quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nunan, D. (1989). Designing Tasks for the Communicative Classroom. Cambridge University Press.
2. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education Limited.
3. Slastenin, V. A. (2010). Pedagogika: Innovatsion yondashuvlar va metodlar. Moskva: Akademiya.
4. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.
5. Qodirov F., Fayzullayeva D. "Ta'lilda differensial yondashuvlar, talabalar ehtiyojlariga moslashtirilgan o'qitish usullari". Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, т. 3, вып. 12, ноябрь 2024 г., сс. 9-13, <https://inlibrary.uz/index.php>
6. Shavkat Mamarajabov. Differensial ta'lif: innovatsion pedagogik yondashuvlar. (2025). Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3(2). <https://doi.org/10.5281/zenodo.14995166>
7. Xakimxodjayev , N. (2025). Differensial va individual yondashuvlar asosida ingliz tilini o'qitish. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 4(8), 93–96. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/zdit/article/view/73057>

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/EVJ3117

TALAFFUZI QIYIN BO'LGAN AYRIM NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI

Atamurodova Gulnora Shermurodovna
ISFT instituti Samarqand filiali o'qituvchisi
gulnoraatamurodova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili ta'lilda talaffuz va imlosi muammoli bo'lgan nutq tovushlarining o'rganilishi, to'g'ri talaffuz ko'nikmasini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, o'quvchilarining adabiy talaffuz me'yorlariga rioya qilgan holda so'zlash malakasini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Maqolada unli va undosh tovushlar ustida ishlashga qaratilgan samarali mashqlar, amaliy topshiriqlar, fonetik tahlil va o'qituvchilarga metodik tavsiyalar keltiriladi. Shuningdek, talaffuzdagi xatolarning oldini olish, so'zlarning to'g'ri talaffuzi hamda yozilishi orasidagi bog'liqlikni tushuntirishga e'tibor qaratiladi. Taklif etilgan usullar orqali o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqda adabiy til me'yorlariga rioya qilish ko'nikmasi shakllantiriladi, o'quvchilarни ravon va aniq talaffuz qilish malakasini oshiradi. Maqola umumta'lim maktablarida ona tili darslarini sifatli o'tkazishda foydali ilmiy-amaliy manba bo'la oladi.



Kalit so'zlar: Unli va undosh tovush, to'g'ri talaffuz, fonetik mahq va topshiriqlar, adabiy til me'yorlari, og'zaki nutq.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы изучения речевых звуков, вызывающих трудности в произношении и орфографии в преподавании родного языка, а также совершенствования навыков правильного произношения. Особое внимание уделяется развитию у учащихся умения говорить в соответствии с нормами литературного произношения, что обозначено как актуальная задача. В статье приводятся эффективные упражнения, практические задания, фонетический анализ и методические рекомендации для учителей, направленные на работу над гласными и согласными звуками. Также акцент сделан на предотвращении ошибок в произношении и объяснении взаимосвязи между правильным произношением и написанием слов. Предлагаемые методы способствуют формированию у учащихся навыков соблюдения норм литературного языка как в устной, так и в письменной речи, а также улучшению их чёткого и плавного произношения. Статья может служить полезным научно-практическим ресурсом для качественного проведения уроков родного языка в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: Гласные и согласные звуки, правильное произношение, фонетическое произношение, задания, нормы литературного языка, устная речь.

Abstract: This article explores the study of speech sounds that present pronunciation and spelling challenges in mother tongue education, as well as the development of correct pronunciation skills. Special emphasis is placed on fostering students' ability to speak in accordance with the norms of literary pronunciation, which is identified as a pressing task. The article provides effective exercises focused on vowels and consonants, practical assignments, phonetic analysis, and methodological recommendations for teachers. Attention is also given to preventing pronunciation errors and explaining the relationship between correct pronunciation and spelling of words. The proposed methods aim to develop students' ability to adhere to the norms of literary language in both spoken and written forms, thereby improving their fluency and clarity in pronunciation. This article can serve as a valuable scientific and practical resource for conducting high-quality mother tongue lessons in general education schools.

Key words: Vowels and consonants, correct pronunciation, phonetic composition, assignments, standards of literary language, oral speech.

Adabiy til va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan talaffuz me'yorlari millatning yuzi, madaniyatilik belgisi sifatida namoyon bo'ladi, shuningdek, shu millat vakillarining o'zaro muloqotlari tushunarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ona tili darslarida talaffuz ustida ishlanar ekan, hamma tovushlarning to'g'ri talaffuzi ham maxsus mashqni talab etavermaydi. Har bir tilda ham talaffuz va imlosi muammoli bo'lgan nutq tovushlari mavjud. Jumladan, o'zbek tilida ham. Asosan, o'quvchilar, barcha soha vakillari, eng achinarlisi, ayrim mutaxassis-o'qituvchilar ham [x]-[h], [u]-[o'], [i]-[e] va ayrim hududlarda [q], [ng] kabi tovushlarning aytilishi va yozilishida muntazam xatoga yo'l qo'yadilar. O'. Usmonova bu masalani hal qilishdagi qiyinchiliklarga shevalarni sabab qilib ko'rsatadi [Usmonova 1976, 3]. Tadqiqotchi talaffuz masalasi o'zbek tilida o'rganilmasdan kelinayotganligini ta'kidlaydi va bu borada o'z ishida adabiy talaffuz me'yorlarini belgilash ishlariga birinchi bo'lib qo'l urgan olim F.K.Kamolov hamda professor S.I.Ibrohimovlarning qimmatli fikrlariga tayanadi.



Bugungi kunda ham ayrim unli va undoshlar talaffuzini o'rgatishda qiyinchiliklarga duch kelinadi. Talaffuzdagi har xillikka sabab sheva ekanligi nazarda tutilsa, adabiy talaffuzni shakllantirishning samarali yo'li bu – fonetik mashqlar ustida ishlash ekanligi ma'lum bo'ladi. Talaffuzda ham, yozuvda ham eng ko'p chalkashlik bo'g'iz undoshi [h] bilan bog'liq. Uni bartaraf qilish uchun quyidagicha yondashish tavsiya qilinadi:

Agar biz videoproektor (imkoni bo'lmasa, plakatlarga tushirib olish ham mumkin) orqali maxsus tuzilgan fonetik mashqlar va shu tovushlar talaffuz holati aks etgan oksilografik tasvirlardan foydalansak, natija ijobiya o'zgarishi mumkin. Nutqiy malakalarni shakllantiruvchi vosita, bizningcha, quyidagicha mashqlardan muntazam foydalanishdir.

[X] va [H] harflarining talaffuzi hamda imlosi: [h] – bo'g'iz undoshi bilan [x] – chuqur til orqa undoshining ba'zan imloda, asosan, talaffuzda almashtirilib, xato qo'llanilmoqda. Bu borada ko'plab metodik tavsiyalar, hatto maxsus lug'atlar ("h"li va "x"li so'zlar lug'ati) yaratilgan bo'lsa-da, bu borada hozirgacha sezilarli natija yo'q.

Talaffuz qiling.

| | |
|------------------------|--------------------------------------|
| h-h-h-h-h-h | x-x-x-x-x-x |
| ham – (va bog'lovchi) | xam – (egik) |
| hamma – (barcha, jami) | xamma – (bug'doy saqlanadigan idish) |
| hil – (bug') | xil – (tur) |
| hush (es, aql) | xush – (yaxshi, ajoyib) |
| shoh – (podshoh) | shox – (novda) |
| hol – (ahvol) | xol – (meng, tanadagi belgi) |

Ko'rib turganingizdek, [h] - bo'giz undoshining talaffuz qilinishida [x] tovushidan farqli o'laroq, o'pkadan kelayotgan havo oqimi og'iz bo'shlig'ida til va tanglay orasidan erkin o'tayotganligi sababli deyarli shovqinsiz hosil bo'lmoqda: *h-h-h...*

Ilmiy adabiyotlarda [h] bo'g'iz undoshinig o'z qatlamga oid so'zlarda uchramasligi ta'kidlanadi:

"h" konsonanti o'zlashgan leksikaga oid so'zlarda qo'llanib, o'z leksikaga :r so'zlarda bo'lmaydi. Garchi u o'zbek orfoepik me'yoriga ko'ra artikulyatsiya qilinsa ham, jonli tilda ko'proq chuqur til orqa tovushiga yaqinlashtirilib yuboriladi. Shuning uchun uni Buxoro va Samarcand shevalaridan boshqa shevalarda chuqur til orqa konsonantidan farqlay bilmaydilar" [Mirtojiyev 2013,121].

Shunga qaramay, *hil-hil, eh, ho, himm, ha, huvv, hoy, oh* kabi o'zbek tiligagina xos so'zlarda aynan bo'g'iz undoshi ishtirot etayotgani, bu tovushning talaffuzi o'zbeklar uchun begona emasligini inkor etib bo'lmaydi.

[x] – undoshining aytilishida esa tilning orqa qismi qattiq tanglayga juda yaqin bo'lganligi sababli o'pkadan kelayotgan havo oqimi tor oraliqdan siqilib o'tishi natijasida qattiq titrash orqali kuchli shovqin sodir bo'ladi: *x-x-x...*

Quyida bo'g'iz undoshininig talaffuzi va imlosiga :r maxsus mashq va



topshiriqlarni tavsiya etamiz:

1-mashq. Quyidagi ma'lumotlarni o'qing va to'g'ri talaffuz qilishni mashq qiling.

[**h**] bo'g'izda hosil bo'luvchi yagona undosh tovush bo'lib, o'pkadan chiqayotgan havo bo'g'izda to'siqqa uchraydi. Unli tovushlardan farqi shovqindan iboratligidadir. Chuqur til orqa undoshi [**x**] dan talaffuziga ko'ra farqlanadi:

[**h**] - talaffuzda til tanglayga tegmaydi, titramaydi.

[**x**] - talaffuzda tilning orqa qismi qattiq tanglayga tegadi va o'pkadan kelayotgan havo bosimi til va tanglay orasidan sirg'alib, titrab o'tadi.

| | |
|------------------------|------------------------|
| hal – hol – hil – ho'l | xol – xil – xo'r – xas |
| hol- xol | hush – xush |
| ham – xam | hil – xil |
| hamma – xamma | hatto – xato |

O'qituvchi shu holatni videoproektor orqali (uning hajmi katta bo'lganligi sababli sinfdagi barcha o'quvchi tasvirni yaqqol ko'rib turadi va bu eng muhimidir) batafsil izohlab, shu asosda to'g'ri talaffuz qilib bera olsa, natija istalgandek bo'ladi. So'ng mustahkamlash uchun biror matn, masalan, Muhammad Yusufning "Ilm istang" she'ri [**h**] va [**x**] harflari tushirilgan holda ekranga chiqarilsa, o'quvchilar bir vaqtning o'zida mustaqil o'rganganlarini amaliyotda qo'llab ko'rish imkoniga ega bo'ladilar. Vaqt ham tejaladi. Uyga vazifa sifatida biror sevimli asar misolida [**x**] yoki [**h**] tovushi ishtirok etgan 20ta so'z topib yozish topshiriladi. Bu borada she'riy matnlar ustida ko'proq ishslash yaxshi natija beradi.

1-mashq. Berilgan she'riy matndagi bo'sh o'rirlarga kerakli harflarni qo'ying va she'rni ifodali o'qing.

Alp o'g'lonlar o'liasi bu ko'...na Turon,
Qalqonlari, qanotlari, ilm istang.
Yarim ja...on bunyod etgan So...ibqiron,
Alisherning avlodlari, ilm istang.
Ilm istang, izingizdan ibrat yog'sin,
I...losingiz sha...dingizdan shiddat yog'sin,
Ortingizdan mag'rur-mag'rur millat yog'sin
Mulki Turon najotlari, ilm istang. (M.YUsuf)

2-mashq. "Adabiyot" darsligidan uyga vazifa sifatida o'qishga berilgan biror asardan [**x**] va [**h**] undoshlari ishtirok etgan so'zlarga 15tadan misol daftaringizga yozing va ularni to'g'ri talaffuz qilishga odatlaning.

Bunday mashqlar birinchidan, o'quvchi nutqini adabiy talaffuzga odatlanishini ta'minlaydi, ikkinchidan, o'quvchining o'zbek tili bo'yicha bilimlarini ham boyitadi. Qolaversa, o'qituvchi mazkur mashqdagi so'zlarni namuna sifatida talaffuz qilib berayotganda so'zlarning ma'nosini o'quvchilarga tushuntirishga harakat qilib, sinonimlardan foydalanadi, natijada ta'limga



oluvchining so'z boyligi oshishiga ham erishiladi. Yoki talaffuz mashqi tugagach, o'quvchilarning o'zlariga o'zbekcha so'zlarga ma'nosi to'g'ri keluvchi boshqa so'zlar topish topshirig'i berilsa, ularning mustaqil ishlashlariga, fikrlashlariga, oldin o'rganilganlarini amaliyotda qo'llashlariga sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonova O'. Talaffuz madaniyati.-T.: Fan, 1976. – 3 b.
2. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – T.: Fan, 2013 – 121 b.
3. Bobomurodova A.Y. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topishmoqlardan foydalanish. Ped. fan nomzodi diss. – Toshkent, 1996.
4. Ibrohimov S. Nutq madaniyati va adabiy talaffuz haqida. –T.: Fan, 1972.
5. Mirtojiev M. O'zbek tili to'g'ri talaffuzsi. – T.: Fan, 2013.
6. Mirtojiyev M. O'zbek tili to'g'ri talaffuzsi. – T.: Fan, 2013. – 424 b.
7. 40. Ne'matov H., G'ulomov A., Abduraimova M., Qosimova N. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 5-sinf uchun darslik.– T.: O'qituvchi, 2000. – 144 b.
8. 41. Ne'matov H., G'ulomov A., Ziyodova T. O'quvchilar so'z boyligini oshirish. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 1996. – 125 b.
9. 42. Ne'matov H. O'zbek tili tarixiy to'g'ri talaffuzsi. –T.: O'qituvchi, 1992 –92 b.
10. Atamurodova G.Sh. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini shakllantiruvchi o'quv topshiriqlar tizimi. Наука и инновация, 2(20), 33–38. Извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/46652>.
11. Atamurodova G.Sh. (2024). Boshlang'ich sinfda matn ustida ishlash orqali to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini hosil qilishda fonetik mashq va topshiriqlardan foydalanish. Академические исследования в современной науке, 3(29), 5–11. Извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/50256>.
12. Atamurodova G.Sh. Educational tasks that develop the skills of correct pronunciation in elementary grades. (2024). International journal of advance scientific research, 4(06), 107-114. [Https://doi.org/10.37547/ijasr-04-06-17](https://doi.org/10.37547/ijasr-04-06-17).

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/SJCE7574

IJOD MAKTABLARIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI

Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi

husnorabaxt4998@gmail.com

Orcid:0009-0006-6690-5744

Annotatsiya. Ushbu maqolada matn tuzilishi, ijod mifikalarida yozma ishlarni tashkil qilish, yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish bilan bog'liq topshiriqlardan namuna hamda ularning amaliy tavsifi keltirilgan.

Kalit so'zlar: matn, matn tuzilishi, mazmun, uslub, leksik-grammatik vositalar, til birliklari.

Аннотация. В статье представлены примеры заданий по структуре текста, организации письменной работы в творческих школах, формированию навыков письменной речи, а также их практическое описание.

Ключевые слова: текст, структура текста, содержание, стиль, лексико-грамматические средства, языковые единицы.



| | |
|---|-----|
| MASALASI | |
| <i>Abdiraimova Khusnobod Samat kizi. KOGNITIV VA METAKOGNITIV O'QIB TUSHUNISH STRATEGIYALARI</i> | 597 |
| <i>Xonzodabegim Abdiyeva Turdiboy qizi. ONA TILINI O'QITISHDA FOTO MATERIALLARDAN FOYDALANISH</i> | 603 |
| <i>Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi. SO'ZNING SEMANTIK TARKIBIDA ASOS VA AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI</i> | 605 |
| <i>Ahmadjonova Umida Ikromjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR T AHLILI</i> | 614 |
| <i>Askarova Mashxura Akmal qizi. NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH</i> | 620 |
| <i>Atamurodova Gulnora Shermurodovna. TALAFFUZI QIYIN BO'LGAN AYRIM NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI</i> | 626 |
| <i>Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi. IJOD MAKTABLARIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI</i> | 630 |
| <i>Avezova Dilnura Bayramovna. ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH USULLARI</i> | 635 |
| <i>Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi. O'ZBEK TILINI XORIJY TIL SIFATIDA O'QITISHDA LUG'AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI</i> | 638 |
| <i>Davronova Zebiniso Bahtiyor qizi. SEZGI A'ZOLARI ASOSIDA TASVIRIY MATN YARATISH JARAYONI T AHLILI</i> | 646 |
| <i>Ergasheva Lobarxon O'tkir qizi. TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA AUTENTIK MATN VA UNDAN FOYDALANISHDAGI AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR</i> | 651 |
| <i>Hamroyev Umid Mustafoyevich. O'QUVCHILARDADA KOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH</i> | 656 |
| <i>Iskandarova Noila Muxtor qizi. PUBLITSISTIK USLUBNI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARNING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i> | 661 |
| <i>Israelova Z. XORIJLIK TALABALARING O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI</i> | 664 |
| <i>Komilova Lola Nosilloyevna. ONA TILI TA'LIMIDA DARAJALI TESTLAR</i> | 670 |
| <i>Axmadalievna Ozoda Iskandar qizi. 10-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</i> | 677 |
| <i>Madina Axmadjanova Mahmudjon qizi. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI GRAMMATIK MINIMUM ASOSIDA O'QITISH TAMOYILLARI</i> | 682 |
| <i>Komilov Xusanboy Bahodir o'g'li. ONA TILINI O'QITISHDA INTERFAOL DASTURLAR VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH</i> | 689 |
| <i>Madvaliyev Orifjon Tolibovich. TAHRIR TA'LIMINI TASHKIL ETISH: DASTLABKI QADAMLAR</i> | 693 |

